

BOJXONA ISHIGA OID XALQARO STANDARTLAR

Abdugʻaniyev Baxtiyor Yormaxamatovich

Bojxona instituti “Bojxona nazorati” kafedrasida dotsenti, k.f.d.

Abduraxmatov Ixtiyorjon Muxtorjon oʻgʻli

Bojxona instituti magistranti

Abdullayev Shaxzodbek Jamshid oʻgʻli

Bojxona institutining tayanch doktorantura mustaqil izlanuvchisi

***Annotatsiya.** Maqolada bojxona sohasiga oid xalqaro standartlar, ushbu standartlarni ishlab chiqaruvchi xalqaro tashkilotlar, xalqaro standartlarning vazifalari, maqsadlari va tashqi savdoni amalga oshirishda xalqaro standartlarning oʻrni va ahamiyati keltirib oʻtilgan. Oʻzbekiston Respublikasida tashqi savdoga oid xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiya qilish zarurati asoslab berilgan.*

***Kalit soʻzlar:** xalqaro standartlar, Jahon savdo tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti, Birlashgan millatlar tashkiloti, investitsiya jozibadorligi, integratsiyalash.*

***Abstract.** In the article, international standards related to the field, production standards of these standards, tools of international standards, products and the organization have the role and importance of international standards in the implementation of trade. In the Republic of Uzbekistan, the need to implement the international trade standards into the national legislation is justified.*

***Key words:** international standards, World Trade Organization, World Customs Organization, United Nations, investment attractiveness, integration.*

***Аннотация.** В статье международные стандарты, относящиеся к данной области, стандарты производства этих стандартов, инструменты международных стандартов, продукция и организация, имеют роль и значение международных стандартов в осуществлении торговли. В Республике Узбекистан обоснована необходимость имплементации международных торговых стандартов в национальное законодательство.*

Ключевые слова: международные стандарты, Всемирная торговая организация, Всемирная таможенная организация, Организация Объединенных Наций, инвестиционная привлекательность, интеграция.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining davlatlararo o'zaro tashqi savdo munosabatlari va global iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kirishishini yanada jadallashtirishda bojxona organlari o'ziga xos o'ringa ega hamda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ilg'or xorijiy davlatlar tajribalarini chuqur tahlil qilgan holda milliy bojxona siyosatini ishlab chiqish, xalqaro standartlar asosida bojxona tartibotlarini raqamlashtirish, bojxona tizimida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida PF-158 farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi 5 ta yo'nalishda 100 ta maqsadlar belgilangan bo'lib, unda tashqi savdoni rivojlantirish, mamlakatning investitsiya jozibadorligini oshirish, eksportni ko'paytirish, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishni tezlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, ushbu strategiyaning 55-maqsadida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish hisoblanadi. Bundan tashqari, eksport hajmini 2 barobarga oshirish va 45 milliard dollorga yetkazish vazifasi yuklatilgan, 49-maqsadda Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish masalalariga bag'ishlangan bo'lib, 250 milliard dollarlik investitsiyalarni jalb qilish vazifalarini qo'ygan. Ushbu belgilangan maqsadlar bojxona organlariga ham masuliyatli vazifalar yuklaydi. Binobarin, bojxona organlari tashqi savdoni amalga oshirishda to'g'ridan-to'g'ri xizmat qiladi. Bojxona rasmiylashtiruvini jarayonlarini soddalashtirish orqali mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga katta hissa qo'shadi va eksport hajmini oshirishga yordam beradi. Bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirish, tashqi savdoni tezlashtirishda xalqaro standartlarni o'rni beqiyos. Shu o'rinda xalqaro standartlar nima degan savol yuzaga keladi?

Standart – bu mahsulotlarning ishlashi, saqlash, tashish, sotish, va yo'q qilish,

ish yoki xizmatlarning xususiyatini belgilovchi hujjat.

Xalqaro standart – xalqaro tashkilot tomonidan qabul qilingan standart bo‘lib, har bir davlat, milliy standartlar tashkiloti yoki biznes tomonidan mustaqil va alohida ishlab chiqilgan texnik reglamentlar va standartlar o‘rtasidagi farqlar tufayli xalqaro savdodagi texnik to‘siqlarni bartaraf etishning bir usuli hisoblanadi. Xalqaro standartning maqsadi - jahon savdosini yengillashtirish va xavfsizligini ta‘minlashdan iborat. Bugungi kunda dunyoda tashqi savdoni soddalashtirishga oid 1000 dan ortiq standartlar ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o‘tkazishning umumiy tashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi standartlashtirish tizimi faoliyat ko‘rsatadi. O‘zbekistonning 1992-yilda BMT ga a‘zo bo‘lishi mazkur yo‘nalishda tub burilish yasadi. Zero, Jahon bojxona tashkiloti hamda Jahon savdo tashkiloti BMT zahirida tashkil etilgan tashkilotlar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi ushbu tashkilotning 1992-yildan boshlab teng huquqli a‘zosi hisoblanadi. Jahon bojxona tashkiloti (World Customs Organization – WCO) – hukumatlararo xalqaro tashkilot hisoblanib, 1952-yilda tashkil etilgan. Bugungi kunda unga 183 ta mamlakat a‘zo. O‘zbekiston Respublikasi ushbu tashkilotning 1992-yildan boshlab teng huquqli a‘zosi hisoblanadi. Jahon bojxona tashkiloti 20 dan ortiq konvensiya, 50 ta tavsianoma va muayyan aniq masalalar bo‘yicha bir qator xalqaro bojxona qoidalari doirasida ishlarni muvofiqlashtiradi. Jahon savdo tashkiloti (World Trade Organization – WTO)–1995-yil 1-yanvarda Tariflar va savdo to‘g‘risidagi Bosh kelishuv asosida xalqaro savdoni liberallashtirish va a‘zo davlatlarning savdo va siyosiy munosabatlarini tartibga solish maqsadida tuzilgan xalqaro tashkilot. Bugungi kunda ushbu tashkilotga 164ta mamlakat a‘zo hisoblanadi. Hozirda O‘zbekiston JSTga a‘zo emas va O‘zbekiston Respublikasida ushbu tashkilotga a‘zo bo‘lish uchun tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Jahon savdo tashkiloti bojxona sohasida ham faoliyat olib boradi. Xususan, JSTga a‘zo davlatlar bojxona tartibga solishning tarifsiz vositalaridan foydalanishni cheklashga, boshqa a‘zo davlatlarga nisbatan bojxona to‘lovlarning adolatli va kamsitilmaydigan tizimlarini qo‘llashga majburdirlar. JSTning me‘yoriy

asoslaridan biri bu Ta'riflar va savdo to'g'risidagi Bosh kelishuv (GATT). Xalqaro bojxona huquqining manbasi bojxona sohasidagi xalqaro shartnomalar orasida muhim o'rinni egallaydi. Jahon savdo tashkilotining bojxona masalalari ushbu hujjat bilan tartibga solinadi. "Bojxona hamkorligi kengashini ta'sis etish to'g'risidagi konvensiya", "Diplomatik aloqalar to'g'risidagi konvensiya", "Konsullik aloqalari to'g'risidagi konvensiya", "Giyohvand vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiya" yoki "Yuklarni xalqaro yo'llarda tashish daftarchasini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi bojxona konvensiyasi", "Chegaralarda yuklar nazoratini amalga oshirish shartlarini kelishish to'g'risidagi xalqaro konvensiya", "Umumjahon pochta jo'natmalari to'g'risidagi konvensiya", "Madaniy boyliklarni noqonuniy olib kirish, olib chiqish va egalik huquqini boshqaga o'tkazishning oldini olish va ta'qiqlashga qaratilgan choralar to'g'risidagi konvensiya", "Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashgan tizimi to'g'risidagi konvensiya", "Qit'a ichkarisidagi davlatlarning tranzit savdosi to'g'risidagi konvensiya", "Pulga topshirilgan va xalqaro yuk tashish uchun foydalaniladigan konteynerlarga nisbatan qo'llaniladigan bojxona rejimi xususidagi konvensiya" va "Konteynerlar xususida 1972-yilda qabul qilingan bojxona konvensiyasi" shular jumlasidandir.

Bojxona standartlari – standartlarni belgilash orqali bojxona xizmatlarining tezkor va ma'muriy imkoniyatlarini yaxshilash va rivojlantirishga yordam berish uchun ishlab chiqilgan. Biroq bojxona standartlarini belgilash tartibi ularning nisbiy ahamiyatini aniqlamaydi, bu xar bir mamlakatdagi vaziyat va uning ustuvorliklariga qarab o'zgaradi. Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro Kioto konvetsiyasi JBT tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bojxona rasmiylashtiruvining standart talablari kodeksi hisoblanadi. Ushbu konvensiya 1973-yil 18-mayda Kioto shahrida bo'lib o'tgan JBT Kengashinig 41/42 sessiyasida qabul qilingan va rasmiy 1974-yilning 25 sentabri (amalda 2006-yilda Ozarbayjon Respublikasi ushbu konvensiyaga 40-davlat bo'lib a'zolikni qabul qilgani)dan boshlab haqiqatda kuchga kirgan. Bugungi kunda dunyodagi 118 dan ortiq davlat, jumladan JBTning a'zo bo'lgan 183 davlat ushbu konvensiyaga a'zo.

Hozirda mamlakatimiz Bojxona tartib tamoyillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro Kioto konvensiyasiga a'zo. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining yangi tahriri xalqaro normativ huquqiy hujjatlar talablari, jumladan xalqaro Kioto konvensiyasi shart va qoidalari asosida ishlab chiqilgan. Shunday bo'lsada, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi PF-6005-son farmoni va uning ilovalarida keltirilgan Konsepsiya hamda Yo'l xaritasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi 2020-yil 21-dekabr O'RQ № 654 qonuni bilan ushbu konvensiyaga qushildi. Kioto konvensiyasi qoidalari, bir tomondan, bojxona tartibotlarini soddalashtirish hamda tezlashtirishorqali tashqi savdo faoliyatini rag'batlantirish, boshqa tomondan, mazkur imtiyozlar davlatlarning manfaatlariga (davlat byudjetining daromadlar qismini to'ldirish va ichki bozorni himoya qilish bo'yicha) zarar yetkazmaslikka yo'naltirilgan. Birlashgan Millatlar tashkilotining Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi savdo qo'mitasi tomonidan xalqaro savdoni soddalashtirish bo'yicha tafsiyalar ishlab chiqadi. Bugungi kunga kelib ushbu tashkilot tomonidan 42 ta tashqi savdoni soddalashtirish oid standartlar ishlab chiqilgan. Ushbu standartlarni o'rganish jarayonida O'zbekistonda ham implementatsiya qilinishi kerak bo'lgan, implemntatsiya qilinmagan xalqaro standartlar borligi ayon bo'ldi. Misol uchun: 35 standartga "Xalqaro savdoda "Yagona darcha" tizimining huquqiy asoslarini ishlab chiqish". Ushbu standartning mohiyati shundan iboratki: "Yagona darcha" mexanizmini tatbiq etish jarayonida yuzaga keladigan umumiy huquqiy masalalar bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish va nazorat qiluvchi organlar ro'yxatini belgilash, davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar bo'yicha javobgarlik masalalarini huquqiy normalarda aks ettirish lozimligi ko'rsatilgan. O'zbekistonda "Yagona darcha" bo'yicha bir qator me'yoriy huquqiy normalar ishlab chiqilgan bo'lsada bu masalalarga to'liq e'tibor qaratilmagan. Hattoki bojxona xizmati bo'yicha asosiy huquqiy norma bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida "Yagona darcha" termini biror marta keltirib o'tilmagan. Xalqaro savdoga oid bu kabi ko'plab standartlarni uchratish mumkin.

Xalqaro savdoni soddalashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan barcha standartlarni mamlakatimiz qonunchiligiga implementatsiya qilish masalalarini tezlashtirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar tashkilotining Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi savdo qo'mitasi № 35-sonli "Xalqaro savdoda "Yagona darcha" tizimining huquqiy asoslarini ishlab chiqish" tavsiyasida ko'rsatilgan talablar doirasida huquqiy bazani ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi. O'RQ-400. 20.01.16

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-apreldagi "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4297-son Qarori;

Bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro Konvensiya (18.05.1973y. Kioto; 26.06.1999-yilda o'zgartirishlar kiritilgan).

<http://www.consultant.ru>;

Savdoni yengillashtirish tamoyillari va foydalari.

<http://tfig.unece.org/RUS/details.html>.

BMT/CEFACT va UNECE rasmiy sayti. <http://www.unece.org/cefact/>;

www.lex.uz